



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Yosh o'quvchilarga lug'atni o'rgatish bo'yicha amaliy maslahatlar

Payg'amova Sabina Ulug'bek qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich
Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh o'quvchilarga chet tili lug'atini o'rgatish bo'yicha amaliy maslahatlar haqida tushuncha, yosh bolalarga lug'atni o'rgatishda asosan nimalarga e'tibor berishlik hamda qanday metodlardan foydalanib bolalarga lug'at o'rgatish haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: So'z, lug'at, nutqiy kreativlik, leksikografiya, leksikologiya, nutq, imloviy savodxonlik, kontekst, atama, imloviy lug'at, ibora, tasviriy ifoda, dunyoqarash, kreativlik.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarning har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o'qitish, nutq madaniyatini o'stirish, yozma va og'zaki nutq mashqlarini uyg'un holatda olib borishdir. O'z navbatida lug'atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini orttiradi, o'quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug'atshunoslik o'rganadi.

Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l- yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Lug'atlar ustida ishlash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. O'quvchilar barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslik materiallarini o'rganish bilan bog'liq holda olib boradi. Ona tili hamda o'qish darslarida lug'atustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish 1-sinfdan oq boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Lug'atlar bilan ishlash Kichik sinflarda o'quvchilarning o'zbek tiliga bo'lgan muhabbatini uyg'otish va ularning so'z boyligini oshirishda muhim vositadir. Kontekstual o'rganish, interaktiv o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va raqamli texnologiyalar kabi zamonaviy usullar o'quvchilarning nafaqat yangi so'zlarni

o'rganishiga, balki ularni hayotda faol qo'llashiga yordam beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu usullarni joriy qilish o'qituvchilarning ijodiy yondashuvi va darslarni qiziqarli tashkil qilishiga bog'liq. Har bir o'quvchi o'zbek tilining boy



imkoniyatlarini kashf etishi uchun darslar faqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki ilhomlantirishi kerak. O'qituvchilar sinf sharoitlariga mos oddiy o'yinlar,

adabiy matnlardan misollar yoki raqamli vositalardan foydalanish orqali bumaqsadga erisha oladi. Ushbu strategiyalar nafaqat o'quvchilarning leksik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularning tanqidiy fikrlash, ijodiy yozish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'lim bilimli, yetuk, komil insonlarni voyaga yetkazishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiyaning shu bosqichidan boshlab o'quvchilar mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatiladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'quv rejada belgilangan barcha fanlar, shuningdek, ona tili, o'qish darslari o'zining maqsad va vazifalariga ko'ra asosiy o'rinni egallaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida izohtalab so'zlar ma'nosi bilan tanishtirish, lug'at ustida ishlashning zamonaviy usullarini o'rgatish boshlang'ich ona tili o'qitish metodikasining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, bilimli, yetuk, barkamol, tafakkuri keng, nutqi ravon, mustaqil fikrli o'quvchilarni tarbiyalash bugungi ta'lim sohasining vazifasidir.

O'zbek tilining boy tarixi, undagi ro'y berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibidagi yangi so'zlarning paydo bo'lishi, turli iboralar ma'nosi, so'z etimologiyasini bilish har bir o'quvchi uchun juda qiziqarli.

Dars jarayonida lug'at ustida ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuksak mahorat va izlanish talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida izohtalab so'zlarga oid bilimlarni shakllantirishda fanning ilg'or yutuqlaridan, xususan, maqsadli, tizimli, texnologik yondashuvlar, boshlang'ich sinf maktab o'qituvchisining metodik tayyorgarligi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini uni rejali boshqarish asosida faollashtirilishi, o'quvchilarni o'qitish metodlari, uslub va vositalarining maktab sharoitiga moslanganligi kabi ko'pgina amaliy ishlarni tashkil etish orqali erishiladi.

So'z ma'nosini tushuntirish bilan birga bu so'zlarni o'quvchilar faol lug'atiga kiritish uchun har bir darsda rejalashtirilgan so'z ustida izchil, puxta, doimiy ish olib borib, quyidagicha metod va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

"Izohini top". Xattaxtaga lug'at ishida o'rganilgan so'zlar yoziladi. O'quvchilardan shu so'zlar mazmunini izohlab berishlari so'raladi.

"To'g'ri yozdim rag'bat oldim". Ikki o'quvchi yoki jamoa o'tilgan notanish so'zlarni imlo xatolarisiz yozish bo'yicha musobaqalashadilar. To'g'ri yozgan o'quvchi yoki jamoaga rag'bat kartochkalari tarqatiladi.



“Soʻzdan marjon tuzamiz”. Oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi. Avvaldan 2 yoki 3 ta soʻz yozilgan A4 formatdagi qogʻoz tarqatiladi. Oʻquvchilar belgilangan vaqt davomida soʻzlardagi boʻgʻin, harflar yordamida soʻz hosil qiladilar. Koʻp soʻz yoza olgan guruh ragʻbatlantiriladi.

“Bu soʻz meniki”. Oʻquvchilarga soʻzlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻqituvchi kartochkalarga yozilgan soʻzning mazmuniga mos jumla, maʼnodosh soʻz oʻqiydi. Oʻqilgan maʼlumot kimning kartochkasidagi soʻzga mos kelsa, “Bu soʻz meniki” deb javob beradi.

Xulosa:

Boshlangʻich taʼlim jarayonida lugʻatlar bilan ishlash oʻquvchilarning kreativ fikrlashi, nutq madaniyati, savodxonligi va soʻz boyligini rivojlantirishda asosiy metodik yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Lugʻat ustida izchil va maqsadli ish olib borish oʻquvchilarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash, mustaqil izlanish va ogʻzaki hamda yozma nutqda faol soʻz qoʻllash koʻnikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon boshlangʻich sinf oʻquvchisining dunyoqarashini kengaytiradi, ularni ona tilining boy imkoniyatlari bilan tanishtiradi va tilga nisbatan mehr uygʻotadi. Metodik yondashuvlarning toʻgʻri tanlanishi, zamonaviy interaktiv oʻyinlar, ijodiy topshiriqlar, kontekstual mashqlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish lugʻat ishi samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Raxmatova Hamida Ismatillo qizi „BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARINING LUGʻATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH” 2021
2. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida Gʻulomova, Sharofat Yoʻldasheva, Sharofjon Sariyev “Lugʻat ustida ishlash metodikasi”
3. “Oʻzbek tili fanidan lugʻatlar ustida shlash orqali talabalarning soʻz boyligini oshirish” metodik koʻrsatmasi. Toshkent-2005
4. Oʻroqova Sevinch Zafar qizi „5-7-SINFLARDA LUGʻATLAR BILAN ISHLASH” 2025
5. Alimova, D. Kichik sinflarda oʻzbek tilini oʻqitishning zamonaviy usullari. Toshkent Fan va texnologiya, 2020. – 180 b
6. Nodiraxon Adxamjon qizi Erkaboyeva „LUGʻAT USTIDA ISHLASH MASHGʻULOTLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH” 2021
7. Qosimova K., Matchonov S. va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
8. Muhamedov X. Oʻ. va boshq. Taʼlimni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar / T., 2016. – 45 b.;